

1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(2-hafta)



1-keys. “Mening Vatanim”



Vaziyat:

Jasurbek 1-sentabr — Mustaqillik bayrami kuni ko‘chada hilpirayotgan O‘zbekiston bayroqchasini ko‘rib, ota-onasidan: “Ota, nega bugun hamma joyda bayroqlar ilingan?” deb so‘radi.



Savollar:

- 1 1-sentyabrda yurtimizda qanday katta bayram nishonlanadi?
- 2 Bayrog‘imizda qanday ranglar bor va ular sizga nimalarni eslatadi?
- 3 Bayram kuni uyingizda yoki ko‘chada nimalarni ko‘rasiz?



Topshiriq:

O‘zbekiston bayrog‘ining rasmini chizing va ranglarini to‘g‘ri boyang.



1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(2-hafta)



2-keys. “Ozoda maktab va Vatan”



Vaziyat:

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi Malikaga ustozlari Vatanimiz o‘zimiz yashaydigan uydan hamda maktabimizdan boshlanishini aytdi. Malika darsdan so‘ng stoli ustini va sinfxonani tartibga keltira boshladi.



Savollar:

- 1 Malika nega darsdan keyin partasini va xonasini yig‘ishtirdi?
- 2 Vatanningizni va maktabingizni yaxshi ko‘rishingizni qanday ko‘rsatasiz?
- 3 Bayramlarda maktabingiz qanday bezatiladi?



Topshiriq:

“Mening sevgan maktabim” mavzusida chiroyli rasm chizib bering.

